

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN ORQALI
TA'LIM BERISH VA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.**

Mamayusupov Otabek Valiyevich
QDPI Sport va harakatli o'yinlar kafedrasi o'qituvchisi

Kalit so'zlar: o'yin faoliyati , jismoniy rivojalanish, maktabgacha yoshdagi, aqliy, axloqiy, didaktik o'yinlar, syujetli o'yinlar, metod, qoida, harakat, harakatli o'yinlar, tarbiya, psixik taraqqiyot.

Maktabgacha ta'lif bolalarni yetuk rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishda muhim ahmiyatga ega bo'lgan ta'lif tashkiloti hisoblanadi. O'yin maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati , u orqali bola shaxs sifatida shakillanadi. O'yin bolaning o'quv , mehnat faoliyati bo'lib tashqi olamga bo'lgan munosabatini shakillantirib beruvchi jarayon hisoblanadi. O'yin boluning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lif tashkilotining ta'lif tarbiya ishida, boluning aqliy , axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahmiyatga ega. Har bir maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bosqichma-bosqich ta'lif tizimida pedagoglardan har bir faoliyat jarayonini o'yin orqali amalga oshirish tarbiyanuvchilarga har bir yosh guruhlarda tevarak atrofdagi hayotni va insonlarni turli munosabatlarini har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatdir. Maktabgacha yoshdagi boluning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kunga vaziyatga qarab o'zgarib turadi va shu sababli bola o'ynab charchamaydi. O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatning psixik taraqqiyoti uchun ahmiyati shundaki bolalarni turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat nomoyon bo'lib qolmasdan balki ukar qayta mustahkamlanadi. Shuning uchun psixalogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkillangan o'yin faoliyati bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shunung bilan birga bolada butun psixik jarayonlari shakillanadi. Bolalar uchun o'yin mazmunini chagarasi yo'q, Maktabgacha yoshdagi bolalr uchun o'yin faoliyati ularni har tomonlama rivojlanishing muhim vositasi va albatta bu faoliyat turi ualrning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. O'yin faoliyatida bola shaxsi sub'ekti sifatida shakillantira boshalaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagoglarni diqqatini o'ziga qaratib kelgan. O'yin jarayoni maktabgacha yosgdagi bolalarning hayoti davomida o'rni beqiyos hisoblanadi , chunki o'yin faoliyati bolani faqqatgina jismonan emas balki psixik tomonidan ham rivojlanishiga katta ahmiyati ega . O'yinning bola tarbiyasida muhim jarayon hisoblangani uchun ta'lif tashkilotlarda bu faoliyat kun tartibi bo'yicha maxsus vaqlarda o'tkazilishi zarur. Yani o'yin faoliyati uchun nonushtadan oldin, mashg'ulotdan song, sayrda,

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

kechqurungi ketish vaqtidan oldin vaqt ajratiladi. Bu ajratilgan vaqtarda bolalar bilan didaktik o'yinlar, stol ustida o'naladigan stol bosma o'yinlar, syujetli rolli o'yinlar o'ynagan ma'qul hisoblanadi. O'yin faoliyati ayniqsa rivojlanishda nuqsoni mavjud bolalarning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. O'yin faoliyati doimo tashqi muhitning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularning mazmuni ham tashqi omillarning ta'siri natijasida o'zgradigan faoliyat turi. O'yin faoliyati bolalar uchun haqiqiy hayot bo'lib, agar ularga o'ynaladigan o'yin jarayoni to'g'ri tallansagina yaxshi samara berishi mumkin. O'yin o'rtasidagi bog'liqlik bola katta bo'lgan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhlarda ta'limning asosiy shakli o'yin hisoblansa, katta guruhga kelib mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhga kelib esa ularda mакtab ta'limiga ishtiyoq uyg'onib boradi. Lekin bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi balki uning mazmuni o'zgaradi. O'yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. Nuqt o'yin faoliyatida juda katta ahamiyatiga ega, nutq orqali bolaning fikr almashinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlanishi uchun asosiy o'yin vazifalaridan biri bu bolaning so'zlarini boyitish, tushunchalarni o'zlashtirish, ishlatadigan so'zlarning polisemiyasi va ularning sematik sohalatrini tushunishda. O'yin jarayonida boalada nutq faoliyati shakillanadi va albatta bolada o'z ona tiliga bo'lgan qiziqishini shakillantiradi. O'yinlarga turli xil tasnif mavjud bo'lib bu tasniflarga ko'ra quyidagilaga bo'linadi:

Didaktik o'yinlar- o'yin jarayonida bolalarga o'zlarini turmush tarzi, tabiat, xar hil hodisalari haqida o'rgatadi. Bolaning bilim ko'nikmalarini chuqurlashtiradi. Didaktik o'yinlar bolalar nutqini rivojlanantirishga katta e'tibor beradi.

Ta'limiy o'yinlar - bolalarga o'yin orqali ta'lim-tarbiya o'rgatiladi. Bunda o'yin bir qatorda bilim, malaka o'rgatiladi.

Sport o'yinlari- bolalarni sog'lom bo'lishiga qaratilganharakatli o'yinlar. Bolalar sport o'yinlar orqali kun davomida tetik bo'lib yurishadilar.

Teatr o'yinlari- zamonaviy teatrda "o'yin" atamasi aktyor tomonidan turli ifoda vositalari yani mimika, nutq, imo-ishoralar, har xil orqali amalga oshiriladi.

Musiqiy o'yinlar- bolalar bu oyin turi orqali musiqaga qiziqishi ortadi va musiqaga bo'lgan qobiliyati shakillandi.

Bolalrغا har bir o'yin shartini tushuntirish kerak shundagina ularga bu faoliyatni o'zlashtirish osson bo'ladi. Qoyidali o'yinlarda o'yin qoidasini bolalar o'zlar o'yin jarayonida belgilashadi. Qoidani o'yinlarning mavzusi va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi; didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musuqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinini tanlay bilishi umga to'g'ri raxbarlik qilish "ilk qadam"

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ta'minlaydi O'yinlar bolalarni rivijlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni mактабгача yosh davrida etakchi faoliyat deb hisoblaydi. O'yin tufayli bolalarning yuqori rivjlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar taminlanadi, uni ruxiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'yinda bola shaxsining xamma tomoni bir biriga o'zaro tasir etgan xolda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini tevarakatrof tog'risidagi tasavvurini kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilip olish mumkun. Shaxsdagi biron sifat tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan bolalarning o'yiniga qiziqishini, tashqilotchilik qobiliyatini rivijlantirish uchun mazmun jixatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi. Ta'lom jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda tarbiyalanuvchilarni bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'ullashtiradi. Bola hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalari amalga oshiriladi:

- o'yin davomida davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ-muloqot madaniyati egallashi uchun yordam beriladi;
- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishiga, mehantga, bo'lgan qiziqishi ortadi;
- shaxsining o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi, o'zligining nomoyon etishiga imkon yaratiladi;

-o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

O'yin faoliyati o'yin ishtirokchilarga jamoaviy muloqot madaniyatini rivojalantirish ko'zda tutiladi;

Tarbiyachi pedagog avval tarbiyalanuvchilarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazish lozim. O'yin faoliyati haqida Y.A.Komenskiy, K.D.Usheniskiy, A.S. Makarenko, P.F.Lestgafarning g'oyalari hozirgi zamon boalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. K.D. Usheniskiy fikriga ko'ra "Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega deb" yozgan. Y.A.Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiatini va mayillariga to'g'ri kiladigan zarurshakli deb hisoblaydi. Komenskiy fiqkriga ko'ra o'yin - bolaning barcha qobiliyat korinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir. P.F. Lestgaf boalalr o'z o'yinlarida tevarak atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi .

Tarbiaychilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishida quyidagilarga rioya qilish lozim:

1. O'yin bilan mehnat o'rtasidagi to'g'ri munosabat o'ranatish;

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

2. O'yinda bolalarning bo'lajak mehnat ahliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarda tarbiyalash.

Shunday qilib maktabgacha ta'llim tashkilotlarning pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha ta'llim berishda keng tarbiyalash va ularga ta'llim berishda keng foydalinadi. O'yin bolalarni jismoniy tomonidan tarbiyalash sistemasida maktabgacha ta'llim tashkilotlarda keng foydalaniadi.

FOYLANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova R.M, Qodirova F.R "Bolalarni òyin faoliyati orqali tarbiyalash" Oliy va òrta maxsus tashkilotlari uchun darslik.T.2018.
2. Maktabgacha ta'llim jurnali: <https://present.jspi.uz/>.
- 3 Abdupattayevich, P. A., & G'ayratovich, S. S. (2023). Improving the effectiveness of the training process of students. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(09), 50-52.
3. Шодиев, Э., Ирматов, Ш., & Якубжонова, Ф. (2021). Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Общество и инновации, 2(2/S), 683-687.
4. G'ayratovich, S. S. (2022). Development of volleyball sport, world championship olympic games. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(12), 51-54.
5. Якубжонова, Ф. И., & қизи Аскарова, М. У. (2023, November). Взаимосвязи физической и технической подготовки волейболистов. In international scientific conference" innovative trends in science, practice and education" (Vol. 2, No. 9, pp. 48-54).
6. Umarova, Z. U., & Ugli, Y. D. N. (2023). Innovative technologies and their application in sports.
7. Akramjonovich, Y. I., & Ismoilovna, Y. F. (2023). Fitness development and training in youth education. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 492-495.
8. Kudratshoevich, S. E. (2023). Monitor of the student's physical culture formation. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 204-211.
9. Umarov, A. A., & Umarova, Z. U. (2023). Talaba-yoshlarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy va harakatli o'yinlarning o'rni. Scientific progress, 4(1), 260-265.